


## “Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy” nomli bibliografik sharh.



**Zot:** Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy (vaf. 1317-yil) — Xoja Orif Revgariydan ta‘lim olgan va Xoja Ali ar-Romitaniyning piri bo‘lgan mashhur tasavvuf vakili.

**Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy-** Vobkent tumanidagi Anjir Fag‘ni qishlogida tug‘ilib, o‘sha yerda vafot qilgan. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy ilmi qol va ilmi holni hazrati Xoja Orif Revgariydan o‘rgangan. Ali Safiyning “Rashahotu aynul hayot” kitobida yozilishicha, Xoja Ali ar-Romitaniy Xizr alayhissalomdan: “Shu asru ayyomda pir deb kimning etagidan tutsa bo‘ladi?” deb so‘raganida Xizr alayhissalom: “Shu asru ayyomning murshidi Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviydir!” deganlar. Xizr alayhissalomning tavsiyasiga muvofiq Xoja Ali ar-Romitaniy Xoja Mahmudga murid bo‘ladi.

Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy Xojagon Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik 7 pining uchinchi. Gilkorlik bilan shug'ullangan. Xoja Orif Mohitobon — Revgariyyadan tahsil olib, uning vafotidan so'ng xojagonlik silsilasini boshqargan. "Silsilayi sharif" da 12 halqanig piri hisoblanadi. Xufiyona (yashirin) zikr bilan jahriya (baland tovushli) zikrga baravar amal etgan. Xoja Ali Romitaniy (Xojayi Azizon) ga ustozlik qilgan.

Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy qabrlari ustida yangi maqbara, maqbara yonida hovuz va jome' masjidi qurilib ushbu joy obod ziyoratgohga aylangan.

„Rashahot“da aytilishicha, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviydan Sayyid Amir Kulolgacha o'tgan xojagon-naqshbandiya tariqati mashoyihlari xufiyona zikr bilan jahriya zikriga baravar amal qilishgan. -Maqomoti Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar kitobida zikr qilinadiki, har qachon Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy: „Yo Rabbii!“-desalar, Alloh Ta'olodan: „Labbayka, yo abdi!“ (Labbay, ey mening bandam!) degan bevosita javobni eshitardilar.

Xoja Mahmudning ikki o'gillari Sayyid va Umar bo'lgan. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy 1286-yilda vafot qildilar va u kishini tug'ilgan qishloqlarida dafn qildilar.

### Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

**1. Jo'rayev, Q. Vobkent tarixi : o'tmishdan bugungacha : ilmiy-ommabop to'plam / Q. Jo'rayev. – Buxoro : “S. S. Buxoriy”Durdona, 2022. – 252 b.**

Ushbu kitob Vobkent hududining boy va ko'p asrlik tarixini yoritishga bag'ishlangan. Asarda qadimgi davrlardan boshlab hududning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy taraqqiyoti va tarixiy ahamiyati izchil bayon etiladi. Vobkentning Buxoro vohasi tarkibidagi o'rni, uning Buyuk Ipak yo'li bilan bog'liq jihatlari va mintaqadagi rivojlanish jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kitobda ayniqsa o'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy obidalar, jumladan Vobkent minorasi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, turli tarixiy davrlar — Qoraxoniylar, Temuriylar, Shayboniylar va keyingi siyosiy tuzumlar davrida hududning ijtimoiy hayoti yoritilgan.

**2. Vobkent tumani : o'tmishi, buguni, kelajagi / H. Rizayev, S. Olim, K. Gadoyev va boshq. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr. 2002. – 112 b.**

Ushbu kitob Vobkent tumani ning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini yoritishga bag'ishlangan. Asarda hududning qadimgi davrlardagi shakllanishi, uning Buxoro vohasidagi o'rni hamda tarixiy jarayonlardagi ahamiyati ilmiy asosda bayon etiladi.

Kitobning birinchi qismida Vobkent hududining qadimgi va o'rta asrlar tarixi, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo yo'llari bilan bog'liq rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Jumladan, Vobkent minorasi kabi noyob me'moriy obidalar orqali hududning boy madaniy merosi ochib beriladi.

Ikkinchi qismda tumanning bugungi kuni — mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivoji, ta'lim va ijtimoiy sohalardagi

o'zgarishlar yoritiladi. Ayniqsa, O'zbekiston mustaqilligi dan keyingi davrda yuz bergan yangilanishlar alohida ta'kidlanadi.

Kitobning yakuniy qismi esa Vobkent tumanining kelajak istiqbollari, hududni kompleks rivojlantirish, investitsiya jalb etish, turizm salohiyatini oshirish va yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan masalalarni qamrab oladi.

**3. Vobkent – o'tmishi ulug' makon tarixiga nazar : ilmiy-ommabop to'plam / F. Umarov, Sh. Husenov, N. Rustamov va boshq. – T.: Voris nashr. 2025. – 225 b.**

Ushbu kitob Vobkent hududining boy tarixiy merosi, qadimiy ildizlari va bugungi taraqqiyot bosqichlarini yoritishga bag'ishlangan. Asarda Vobkentning Buxoro vohasidagi tutgan o'rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kitobda hududning qadimgi davrlardagi shakllanishi, sug'orma dehqonchilik va savdo yo'llari orqali rivojlanishi, o'rta asrlarda esa ilm-fan va hunarmandchilik markazlaridan biriga aylangani haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Jumladan, Vobkent minorasi kabi noyob me'moriy obidalar orqali hududning tarixiy salohiyati ochib beriladi.

**4. Asrorova, L. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy va Miri Xurd Vobkandiy / L. Asrorova. – T. : O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2019. – 56 b.**

Ushbu kitob Movarounnahr tasavvuf tarixida muhim o'rin tutgan ikki buyuk alloma — Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy va Miri Xurd Vobkandiy hayoti, ilmiy-ma'naviy merosi hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yoritishga bag'ishlangan.

Asarda Vobkent tumani va Buxoro vohasining tasavvufiy muhitidagi o'rni keng yoritilib, bu ikki allomaning shakllanishida mazkur hududning tutgan ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy ta'limotining asosiy g'oyalari, uning murshidlik faoliyati va Naqshbandiya tariqati rivojiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Shuningdek, Miri Xurd Vobkandiyning hayoti, uning diniy-ilmiy qarashlari, xalq orasida tutgan o'rni hamda ma'naviy tarbiya masalalariga oid fikrlari manbalar asosida bayon etiladi. Kitobda ularning zamondoshlari, ustoz-shogird an'analari va tasavvuf rivojidagi o'zaro bog'liqlik masalalari ham yoritilgan.

Mazkur asar nafaqat tarixiy-biografik tadqiqot, balki ma'naviy merosni targ'ib qiluvchi muhim manba bo'lib, u talaba-yoshlar, tadqiqotchilar hamda tasavvuf ilmi va milliy erosga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

**5. Buxoriy, S. S. Hazrat Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy / S. S. Buxoriy. – Toshkent : Nihol, 2019. – 24 b.**

Ushbu kitob Movarounnahr tasavvuf maktabining yirik namoyandalaridan biri — Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy ning hayoti, ilmiy-ma'naviy merosi va ta'limotini keng yoritishga bag'ishlangan.

Asarda allomaning yashagan davri, uning Buxoro vohasidagi ilmiy va ruhiy muhit, ustoz-shogirdlik an'analari hamda tasavvuf rivojiga qo'shgan hissasi manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, uning Xoja Yusuf Hamadoniy maktabiga mansubligi va "Xojagon" silsilasidagi o'rni alohida e'tibor bilan yoritilgan.

**6. Qodirov, D. Naqshbandiya tariqati silsilasi va tasavvuf allomalarining ma'naviy xislatlari : Ilmiy risola / D. Qodirov, O'. Mavlonova Toshkent : Navro'z, 2017. –272 b.**

Ushbu kitob Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf yo'nalishlaridan biri — Naqshbandiya tariqati ning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va silsilaviy davomiyligini yoritishga bag'ishlangan. Asarda tariqatning asoschilari va yirik namoyandalari hayoti hamda ularning ruhiy-axloqiy qarashlari izchil bayon etiladi.

Kitobda Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Abdulxoliq G'ijduvoniy hamda Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalarning hayoti, ilmiy merosi va tariqat rivojiga qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Ularning ustoz-shogirdlik rishtalari orqali shakllangan silsila tizimi alohida tahlil qilinadi.

**7. Buxoriy, S. S. Bohovuddin Naqshband yoki yeti pir / S. S. Buxoriy. – Toshkent : "Yangi asr avlodi", 2003. – 19 b.**

Ushbu kitob tasavvuf tarixining buyuk siymolaridan biri — Bahouddin Naqshband hamda u bilan bog'liq "Yeti pir" an'anasini yoritishga bag'ishlangan. Asarda Naqshbandiya tariqatining shakllanishi, uning ruhiy asoslari va silsilaviy davomiyligi keng bayon etiladi.

Kitobda "Yeti pir" tushunchasi orqali Buxoro vohasida yashab o'tgan mashhur tasavvuf allomalari — Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy, Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshbandning hayoti, ilmiy-ma'naviy merosi hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi.

#### **Ijtimoiy tarmoqlar:**

8. <https://mover.uz/watch/iQoj6EbR>
9. <https://www.youtube.com/watch?v=DQEZdB2ZELI>
10. <https://www.instagram.com/reel/DWIN4g2jDpH/>
11. <https://yandex.uz/maps/org/174458840592/>
12. <https://www.cemc.uz/uz/qadimiy-buxoro-shahridagi-tarixiy-va-diqqatga-sazovor-joylarga-sayohat>
13. <https://hujjat24.uz/product/xoja-mahmud-anjir-fagnaviy-maqbarasi-tarixi-va-ahamiyati>
14. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoroning\\_yetti\\_piri](https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoroning_yetti_piri)
15. <https://muslim.uz/e/post/7710-xoja-mahmud-anjir-fag-naviy-ziyoratgohi-vobkent-tumani>